

**MILLIY VA MA'NAVIY QADRIYATLARIMIZ, URF-ODATLARIMIZ, MILLIY
BAYRAMLARMIZ KATTA GURUH BOLALARINI VATANGA MEHR-MUHABBAT
RUHIDA TARBIYALASH VOSITASI**

Akbaraliyeva Mahliyo Nabijonovna

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 6-
KTIMTT

Rahmonova Tursunxon Ne'matjonovna

Andijon viloyati Asaka tumani 9-DMTT

Ushbu maqolada yurtimizda yashayotgan millat va elatlarning urf-odatlarini milliy bayramlari, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni katta guruh bolalariga yetkazish va shu asosda ularni tarbiyalashning usul va vositalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Mentalitet, urf-odat, qadriyat, demokratiya, ma'naviyat, vatan, vatanparvarlik.

Annotation

This article analyzes the methods and means of conveying the traditions, national holidays, national and spiritual values of the nations and peoples living in our country to a large group of children and educating them on this basis.

Keywords: Mentality, tradition, value, democracy, spirituality, homeland, patriotism.

O'rta Osiyo xalqlarining milliy an'analarini, ma'rifat tajribalarini ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshirish, bolalarning xalqimizning merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish avvalombor oila va mahalladan boshlanadi.

Bu esa mustaqil O'zbekistonning istiqbolini mustahkamlash va rivojlantirishda hamda Vatanparvarlik va fidoyi farzandlarni tarbiyalashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek xalqi barcha xalqlar singari asrlar maboynida saqlanib kelgan milliy qadriyatlari, rasm-rusumi, udumi va an'analari, yurish-turishi, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, huquqiy ongi, umuman, bir so'z bilan aytganda ma'daniy-ma'rifiy dunyosiga egadir. Bular orasida xalqimizning ma'rifiy faoliyatini aks ettiruvchi milliy bayramlar har bir insonning ahloqiy madaniyati va vatanparvarlik his- tuyg'ularini shakllantirishning asosiy omilidir.

Vatan tuyg'usi orqali har bir fuqora quyidagilarni anglashi joiz:

- o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;
- qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;
- xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlar, rasm- rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;
- ajoyib vatandoshlar - ajdodlar nomi bilan, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;
- shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;
- Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanga qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lgan qahramonlar nomini yod etish;
- asrimizning yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qatag'onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lgan minglab millatimiz gullarini unutmaslik;
- bu aziz va go'zal vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli

bo'lishdir.

Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, vatanning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga boylik qo'shishga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilari sari intilish va boshqalardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytilganda o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish:

ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir;

vatanparvarlik - xalqaro munosabatlarda vatan, millat manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yishdir.

Vatanparvarlik haqida so'zlar ekanmiz, mustaqillik bizga in'om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so'zlamasdan iloj yo'q.

Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalbidan mustahkam o'rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida 180 tadan ortiq mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida mag'rur hilpirab turishini ko'rish va his etish naqadar katta baxt, insonni naqadar kuchli bir hissiyotga chulg'ab oladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov juda to'g'ri ta'kidlab o'tganidek: «O'zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari - Davlat Gerbi, Davlat Bayrog'i, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ona vatan - O'zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat to'yg'usini tarbiyalaydi».

Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'rifiy-tarbiyaviy tadbirlarning maqsadi, ona-yurtimiz istiqloli va istiqboli yo'lida fidoiylilik namunalarini ko'rsatishga qodir bo'lgan vatanparvar shaxsni shakllantirishga qaratilgandir.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan bayramlarida insoniyat hayotida qo'lga kiritilgan g'alabalar, bosib o'tgan yillar ifoda etiladi. Ularning shaklan milliy, mazmunan boy, chiroyli o'tishi, bolalarning axloqiy madaniyati vatanga muhabbatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasida «Fuqoralar O'zbekiston xalqining tarixiy ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar» deb ta'kidlangan. Shunday ekan bir necha asrlar davomida yaratilgan obidalarimiz, machit, madrasa, saroy, qasrlar, osmono'par minoralar, maqbaralar, boy ko'hna va navqiron tariximiz bolalar qalbidan chuqur joy olishi lozim.

Ayniqsa bayram kunlari Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent yodgorliklarini ziyorat qilish, jahonga dovrug' taratgan, dunyo ilm-faniga, madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan sohibiqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' zotlarga ta'zim bajo keltirish Vatanga, xalqqa bo'lgan muhabbatni va sadoqatni ifodalaydi.

Shuningdek xalq qahromonlari, chet el bosqinchlariga qaqshatkich zarba bergan mard, dovyurak, Vatan himoyasini o'z hayotidan ustun qo'ygan To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Muqanna, Temur Malik bobomiz Amir Temurdek ulug' insonlar oldida tiz cho'kib, qasamyod etmoq, Vatan himoyasini el-yurt tinchligi va farovonligini asramoq har bir inson uchun zurrudir.

Xorazmshoh sarkarda Jaloliddin Manguberdi va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi suratlarni keltirganmiz. Ushbu suratlar orqali bolalarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish jarayonida qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzini ko'proq an'ana urf-odatlar orqali boshqarilishidir.

O'zbek xalqi oila qurish an'analariga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda, hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'ymaslikda jamoa, jamiyat ra'yi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu o'rinda «G'arb qonunlari, sharq urf-odatlar bilan boshqariladi» degan iborani eslamog' joiz. Darhaqiqat, Sharqda, shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida, yoinki, keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnicilik an'analarimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida bajariladi.

G'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa insonning ichki, botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutloq aralashmaydi. Sharqda esa butkul boshqacha manzarani kuzatamiz. Sharqda jamoaga asosiy e'tibor beriladi. Har bir urf-odat, marosim jamoa, mahalla ahli ishtirokida o'tkaziladi. Jamoa insonni ijtimoiy nazorat ostida tutib turish, shaxsning jamoadagi muntazam ishtiroki uning umumiy ahloqiy me'yorlari doirasida ish tutayotganining isboti sifatida talqin etiladi. Jamoadan ajralgan holda ish tutish insonning ijtimoiy begonalashuvi sifatida baholanadi.

Xalqimiz mentalitetiga mos va xos bo'lgan ana shu jihatni Birinchi Prezident I.A.Karimov alohida ta'kidlab ko'rsatgan edi: «O'rta Osiyoda biz butun tarix davomida jamoa bo'lib yashab kelganmiz. Ba'zi G'arb mamlakatlarida esa yakka yashashga intilish kuchli. Bu bizning respublikamiz uchun mos emas. Aytaylik bizda mahallachilik an'anasi juda kuchli... Men xususiyatlar to'g'risida gapirar ekanman, Amerikada shaxs demokratiyasi ustuvor bo'lsa, bizda boshqacha me'yorlar asosida, ya'ni jamoa manfaatlariga mos yashash ustunligini aytmoqchiman».

Darhaqiqat, o'zbek xalqi jamoa manfaatlari, jamoatchilik fikri doirasida, an'ana va urf-odatlariga sodiqdlik negizlarida birlashishga moyil va shunga intiluvchi xalqdir. Zero, an'analarning o'zi ham jamoatchilik fikrining barqarorlashgan ifodasidir.

Shu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunda o'zbek qadrini urf-odat va marosimlarimizning an'anaviy o'ziga xos tomonlari jonlanayotgan bir tarixiy jarayonda mentalitetimizdagi jamoaviylikka xos me'yoriy bog'liqlik fazilatini saqlagan holda, uning bir qadar individuallasuvi, unda javobgarlik hissasini rivojlantirish, o'zi uchun o'zi hisob bera olish, mustaqil ish tutish, shaxsiy mas'ullik singari xususiyatlarni yanada takomillashtirish zarur. Shu o'rinda afsus bilan aytish kerakki, o'zbeklar bir yuz ellik yillik mustamlaka davrida xalqimiz yo'qotgan qadriyatlarni saqlab qolishga erishilgan qadriyatlardan bir necha hissa ko'p bo'lgan. Chor Rossiyasi hamda Sho'rolar davrida xalqimizga xos bo'lgan hamjihatlik, jangovarlik, har ishda so'z va amal birligi singari fazilatlariga jiddiy zarar yetkazildi.

Xalq orasida milliy birlikka intilishdan ko'ra; guruhiy, etnik mahalliy va hududiy ayirmachilikka berilish kuchaydi. Xalq milliy mentaliteti taqdirga tan berish, hamma narsaga rozi bo'lib ketaverish, loqaydlik kabi hislatlar avj oldi. Uzoq davom etgan sobiq sovet davlatining mafkuraviy tazyiqlari oqibatida ko'plab diniy va milliy qadriyatlarimiz e'tiborsiz qoldi, uzoq tarixga ega bo'lgan muqaddas an'ana va marosimlarimiz bid'at, «eskilik sarqiti» deb kamsitildi, milliy udumlarimizning tarixiy asoslariga holisona baho berilmadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach,

o'tmishdan meros bo'lib o'tgan ana shunday salbiy holatlarga yangicha nigoh bilan qarash, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy, madaniy merosimizni, o'tmish tariximizni, qolaversa umummilliy ma'naviy islohotlarni amalga oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi va ular davlat siyosati darajasidagi g'oyat muhim vazifa qilib belgilandi.

Bugungi kunda hayotiy zaruratning o'zi xalqimiz fe'l atvori, mentalitetini yangilashga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda. Lekin, afsuski, bugungi kunda yer sharida kechayotgan boshqa bir muhim jarayon, dunyo bo'yicha ketayottan globallashuv jarayoni natijasida jahon xalqlari uchun umumiy etiket, umumiy fe'l-atvor, umumiy mintelitet shakllanmoqda va bunga bevosita jahon miqyosida ketayotgan siyosiy, iqtisodiy va axborot borasidagi globallashuv ancha kuchli ta'sir qilmoqda. Bunday globallashuvni bir xillashuv muayyan ijobiy natijalar berishiga qaramasdan, ko'plab salbiy oqibatlarga ham olib kelmokda. Bu sharqning gavhari bo'lgan o'zbek xalqining milliy mintalitetiga ham bevosita, hamda bilvosita ta'sir ko'rsatmokda. Natijada globallashuv oqibatida o'zbeklarning ko'plab milliy mentalitetiga xos talay qadriyatlar, marosim va udumlarni unitilishiga sabab bo'lmokda. Shu bois, bugungi kunda, xalqimizning milliy mentalitetini o'zida aks etgiruvchi qadimiy urf-odatlarini, marosimlarini saqlab qolish uchun:

1. Qadimiy urf-odatlarimiz, folklor na'munalimiz saklanib kelayotgan mintakalar (Boysun, Urgut, Shaxrisabz kabilar)ni davlat muxofaziga olish va maxsus maqom berish;
2. Xalq mentalitetini saqlash maqsadida etnoekologik jamg'armalar, tashkilotlar tuzish;
3. Xalqimiz milliy mentalitiga oid eng qadimiy urf-odat va marosimlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilish hayotiy zaruriyat bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib, aytish mumkinki, butun jahon bo'yicha ulkan globalizatsion jarayonlar kechayotgan bir vaqtda o'zbek milliy mentalitetini tadqiq qilish, uning nechog'lik umuminsoniy qadriyatlarga mosligini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, xalqimizning qadimiy an'analari, azaliy urf-odat hamda marosimlariga ega bo'lishi bilan birgalikda, o'ziga xos va o'ziga mos milliy mentalitetga ega xalq ekanligidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbek xalqining qadimiy davlatchilik va etnik tarixiga bag'ishlagan adabiyotlar to'g'risida qarang: Azamat Ziyov O'zbek davlatchiligi tarixi. T., 2000;
5. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti xususiyatlari // Ijtimoiy fikr 1998 № 1. 49-bet
6. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti xususiyatlari.. 49-bet
7. K. Shoniyozov O'zbek xalqining shakllanishi jarayoni.. 8-bet
8. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteta: kecha va bugun...16-bet
9. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan.-T.: O'zbekiston, 1996.- T. 4.- 239-240 b